

TOG‘ SHAROITLARIDA QO‘SHINLAR RKB MUHOFAZASINI TASHKILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Rahimov Baxtiyor Xo‘razovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar

Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi radiatsion, kimyoviy,

biologik muhofaza sikli katta yo‘riqchi-haydovchisi,

III-darajali serjant.

ANNOTASIYA

Maqolada tog‘ sharoitlarining RKB muhofazaga ta’sir o‘tkazuvchi omillari va uni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, xavfsizlik qoidalari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Tog‘ sharoitlari, RKB muhofaza, zararlangan hudud, ta’sir etuvchi omillar, shaxsiy himoya vositalari, xavfsizlik qoidalari. O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyoning markaziy qismida Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan bo‘lib, tekislik va tog‘ relyefidan tashkil topgan o‘ziga xos hudud.

Tog‘ sharoitlari azal davrlardan jangovar harakatlar maydoni bo‘lib kelgan. Harbiy xizmatchilar bu yerlarda noqulay tabiiy omillar, qator kasalliklar va patologik holatlar bilan to‘qnash kelishgan. RKB qo‘shinlari bo‘linmalarining tog‘ sharoitidagi harakati atrofdagi o‘tish qiyin bo‘lgan joylar, yo‘l tarmoqlarining tanqisligi, qo‘shinlarning yo‘lsiz joylarda siljishi qiyinligi, ob-havoning va tog‘ daryolari suv sathining keskin ravishda o‘zgarishi, tog‘larning aloqa va radiotexnika vositalariga ekranlovchi ta’siri, tog‘larda ko‘chki bo‘lishi, to‘siqlar hosil bo‘lishi va zaharlovchi moddalarning tog‘ daralari va g‘orlarda uzoq vaqt saqlanib turishini hisobga olib tashkillashtirilishi kerak. Shamol bo‘lmagan vaziyatlarda vodiyning tubida inversiya zonasi, ya’ni o‘ziga xos sovuq havo “ko‘li” hosil bo‘lishi mumkin, ushbu zonada turg‘un bo‘lgan jangovar zaharli moddalar buluti hosil bo‘lib, uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin. Agar shamolning yo‘nalishida alohida tepaliklar yoki katta qoyalar mavjud bo‘lsa, ko‘p holatlarda tog‘li rayonlarda tez-tez “tog‘-flagi” paydo bo‘lishi kuzatiladi. Shamolning tezligi tufayli zaharlangan havo shamol bilan birga quyun kabi aylanib, qoyalarning shamolga teskari tomonidan yuqori cho‘qqisigacha ko‘tariladi va zaharlanish holati ko‘proq vaqt saqlanib qoladi, qoyaning shamolga ro‘para tomonida esa, zaharlangan havo buluti tarqalib ketadi. Tog‘larda jangovar harakatlar har-xil ko‘rinishlarda amalga oshiriladi. Ko‘pincha o‘tish qiyin bo‘lgan joylarda, ba’zan baland tog‘dagi og‘ir tabiiy sharoitlarda olib boriladi. Shuning uchun ham faqat tog‘ sharoitlarini va tog‘ to‘siqlaridan oshib o‘tish texnikasini puxta o‘zlashtirgan, har-xil

tog' relefida birdek mahorat bilan harakat qilib, tog' sharoitlariga juda tez moslasha oladigan bo'linmalargina jangovar vazifalarni mukammal bajarish, kam jismoniy va ma'naviy kuch sarflab muvaffaqiyat qozonishga qodir. Tog'li rayonlarda ayniqsa, kimyoviy va radiofaol moddalar joylarda bir me'yorida tushmasligi xususiyati bilan ajralib turadi. Yadro va kimyoviy qurollar tog' yon bag'irlarida qo'llanilganda ko'proq radiofaol moddalar va jangovar zaharli moddalar bilan xavfli darajada zaharlanadi, tog'ning qarama-qarshi tomonlarida esa, zaharlanishlar kamroq bo'lishi yoki umuman zaharlanmasligi ham mumkin. Zaharlangan havoning yo'nalishi va tarqalish uzoqligi, odatda, tog'li-vodiy shamolining xususiyatiga bog'liq. Yoz faslida kunduzi, odatda, shamol vodiydan tog' tepasiga qarab esadi. Bulutli havoda va qor qatlamlari borligida, kechqurun, kechasi, ertalabki soatlarda shamol tog' tepasidan pastga, ya'ni vodiyga qarab esadi, ushbu hollarda zaharlangan havoning yo'nalishi va tarqalishi tekis joylarga nisbatan uzoqligi 2 marta ko'proq bo'lishi mumkin. Tog'li joylarni bir tekislikda zaharlanmasligi RKB razvedka ma'lumotlarini aniqliligini pasayishiga olib keladi, tog'li rayonlarda radioaloqa vositalarini ishlashiga bevosita ta'siri, RKB vaziyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yuqori qo'mondonlikka o'z vaqtida jo'natilishiga va qo'shinlarni RKB vaziyatlar to'g'risida ogohlantirishni qiyinlashtiradi. Havo haroratining +450 S dan oshishi va -200 S dan pastga tushib ketishi, shamol tezligining 15 m/sek. dan oshishi, yarim sutkada yog'ingarchiliklar miqdori 15 mm ga yetishi, chang-to'zonlar va kam ko'rinishga ega bo'lgan tumanlar va boshqalar o'ta xavfli hodisalarga kiradi. Bunday hodisalarni hisobga olish, sababini tahlil qilish va choralar ko'rish, bo'layotgan va bo'ladigan hodisalarning oldini olish, qo'shinlarning jangovartayyorgarligini oshiradi va jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlaydi. Tog'ning inson sog'ligiga va umuman tibbiy xizmat faoliyatiga o'ta kuchli ta'sir o'tkazuvchi omili uning iqlimi hisoblanadi. Yozda tog'da jazirama issiq havoning harorati soyada ko'pincha +45o S dan oshib ketadi, ochiq quyosh ostida, chodirlarda, jangovar texnikalar ichida esa havo harorati tashqaridagidan 10-12o S yuqori bo'ladi. Tog' va sahro mintaqalarida tuproq o'zining tarkibi va sirtqi shakli bo'yicha quyidagicha farqlanadi: toshli, qumli, loyli va uymabarxanli; tabiati bo'yicha - mo'tadil, subtropik va tropik kengliklarga bo'linadi. Tuproq, Yuqori aniqlikdagi qurollardan himoyalanişda va zamonaviy janglarda RKB muhofaza va muhandislik ta'minoti qum, tosh tog' quyoshi ostida +70 oS gacha, texnikaning zirhli va metall qismlari +80 o S gacha qiziydi. Qishda havo harorati tog'da -50 o S gacha pasayishi kuzatiladi. Tog' iqlimi yuqori darajadagi insolyatsiya, havoning o'ta quruqligi (ayrim jazirama kunlarda havoning nisbiy namligi atiga 20 % ni tashkil qilishi mumkin), havo temperaturasining keskin yillik (102 o S gacha) va sutkalik (20 o S gacha va undan ko'p) o'zgarishi bilan ajralib turadi. Tuproq, tosh va metall temperaturasining o'zgarishlari bundan ham ko'proq. Kechasi havo haroratining

40 o S dan 20 o S gacha pasayishi odamda keskin sovqatish hissini paydo qiladi. Shu sababli ko'pgina shamollash kasalliklari tog'da yoz oylarida ham uchrab turadi. Tog'larda razvedkani tashkil qilishda topshiriqlarni bajarish vaqti taxminan 1,5-2 marta oshishi mumkinligini (razvedka olib borish tezligi kunduz kuni - 15-20 km/s, tunda esa -10-15 km/s) hisobga olish kerak. Tog'da mo'ljallash qiyinligi tufayli doimo razvedka mashinalarining yo'naltiruvchi asbobidan foydalanish zarur. Razvedka bo'linmalari bilan doimiy aloqani ta'minlash maqsadida tog' cho'qqilariga, ayrim hollarda vertolyotlarga o'rnatiladigan retranslyatsiya punktlarini tashkil etishni ko'zda tutish lozim. Tog'li rayonlarda sutka davomida kuchli ravishda harorat gradienti (tez o'zgarishi) kuzatiladi. Masalan, yoz faslida tog' yonbag'irlarida, vodiylarda shaxsiy himoya vositalarini kiyib yurish vaqtu zoqroq davom etsa, shaxsiy tarkibni issiqlik urish holatlari, qorli zonalarda esa, (tunda) qo'l-oyoqlarni va yuz qismini sovuq urishi ehtimoli bor. Havo harorati sovuq bo'lganda, gazniqoblarni ko'zoynaklarini terlashi va ularni muz qatlami bilan qoplanishi natijasida ko'rish qobiliyati susayishini e'tiborga olinish lozim. Ushbu holatlarning barchasi shaxsiy tarkibni jangovar qobiliyatiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy tarkibni sovuq olmasligi uchun chora-tadbirlari bajarilishi zarur. Himoya paypog'ilarini kiyishdan oyoq kiymi ustidan ikki qavat qog'oz (gazeta) o'rash usuli bilan oyoqlarni sovuq urishi oldi olinadi. Toshloq yerlarda himoya vositalarining tezroq eskirib yemirilishini, sovuq ob-havo ta'sirida qayishqoqliligi yomonlashishiga olib kelishini hisobga olish lozim. Tog' rayonlarida ko'p miqdordagi qum va chang olib keladigan kuchli shamol teztez uchrab turadi. Tog' iqlimining xarakterli belgilaridan yana biri – namlikning kamligidir. Yil bo'yi 250 mm dan kam atmosfera yog'inlari tushadi. Tog'da butun hayot daryolar, quduqlar va buloqlar yaqinida joylashgan. Kamdan-kam uchrab turadigan, asosan qurib borayotgan ko'llardagi suv kuchli minerallashgan, taxir-sho'r ta'mli, ichish uchun yaroqsiz. Shaxsiy tarkibning tog'da, balandlikda harakatlanishi baland tog'li joylarga xosklimatik hodisalar tufayli murakkablashadi. Birinchi o'rinda ularga maxsus kiyimkechakni talab qiladigan haroratning keskin o'zgarishi kiradi. Seryog'in, nam va sovuq obhavo tog'da harakatlanish va jangovar vazifani bajarish sharoitini qiyinlashtiradi. Tog'larning 2000 metrdan yuqori balandliklarda havoning siyrakligi sababli shaxsiy (gazniqoblar, himoya plashlari va qo'lqoplar) himoya vositalaridan foydalanish vaqtida shaxsiy tarkibni jangovar qobiliyatini pasayishiga va tez charchashiga olib keladi. Ushbu vaziyatlarda himoya vositalarini kiyib yurish davomiyligi ob-havo sharoitlarini hisobga olinishi zarur bo'ladi. Harbiy xizmatchilar himoya vositalarini doimo o'zlari bilan olib yurishlari zarur. Himoya vositalarini ogohlantiruvchi signallarni olganlaridan keyin yoki mustaqil ravishda jangovar holatga keltirishadi. Bo'linma komandirlari radiatsion, kimyoviy nazoratni o'tkazilganidan keyin, agar asboblari radiatsion, kimyoviy zaharlanish yo'qligini tasdiqlasa, himoya

vositalarini yechish vaqti ular tomonidan aniqlanadi, ammo ushbu vaqt shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish mumkin bo'lgan vaqtdan oshmasligi lozim.

Tog'li rayonlarda reaktiv piyodalar ognemyotlarini qo'llashda havoning siyrakligi sababli ognemyot snaryadining uzoqqa uchish masofasini o'zgarishi, mo'ljalga olish nuqtasini doimo korrrektirovka qilish, nishon joylashgan burchagini o'zgarishini hisobga olish lozim. Tog' dovonlarini va ahamiyatga ega balandliklarni egallashda olov otish bo'linmalari odatda, umumqo'shin bo'linmalari va maxsus tadbirlar bo'linmalari bilan hamkorlikda harakat qilishadi. Olov otuvchilarning harakati tayanch punktlarini qamal qilishga va keyin esa dushmanning tirik kuchlarini uzoq vaqtga chidamli o't otish inshootlarida yakson qilishga yo'naltirilishi kerak. Olov otish bo'linmalari aylanib o'tuvchi otryadlar va razvedkachi guruhlar tarkibida harakat qilishlari mumkin.

Piyodalar reaktiv olov otish bo'linmalarining qo'llanilishining muhim tomoni bo'lib, ularning kichik guruhlarda pistirmada dushmanning asosiy front orti kommunikatsiyalarida harakat qilishi hisoblanadi. Pistirmaning yuqori harakatchanligini hisobga olgan holda, reaktiv piyodalar olov otish qurollarini to'satdan qo'llash dushman tirik kuchlarini tog' yo'llarida, dovonlarda va daralarda yakson etishga, dushman front ortida vahima ko'tarishga olib keladi. Tog' sharoitlarida ognemyotlarning nishonlari turli balandliklarda joylashishi, ognemyot otuvchilar tog' yonbag'irlarida, tepadan pastga yoki aksincha pastdan tepaga qarab otish sharoitlariga duchkelishi mumkin. Ushbu holatlarda otish nuqtalariga tuzatishlar kiritilishi zarur. 400 metrdan uzoqlikda joylashgan nishonga pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga otishu chun 300 burchakda joylashgan nishonga otish uchun, nishon pastki qismini nishonga olish maqsadga muvofiq. Olov otuvchilar tog'da motoo'qchi bo'linmalarining jangovar tartibida 20-30 m., ayrim hollarda esa 10 m oraliq bilan hujumga o'tishadi. Piyodalar reaktiv olov otish bo'linmalari havo desanti tarkibiga ham qo'shilishi va desantchilarning tog' dovonlarini, o'tish joylarini, yo'llarni va tog' daryolaridagi kechuvlarni egallashdagi, dushman to'dalarini yakson etishdagi va uning front orti xizmatini buzishdagi jangovar harakatlarini ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘R Mudofaa Vazirining 2019 yil 20 mart kunidagi 21- sonli buyrug‘i bilantasdiqlangan va kuchga kiritilgan: “Qo‘shinlarning jangda radiatsion, kimyoviy, biologik muhofazasi bo‘yicha Qo‘llanma” II qism. Xatlash raqami 1262.
2. Suyarov Z.X. Radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza qo‘shinlari bo‘linmalarining vazifalari va harakatlari taktikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: QKA, 2018. 110 bet. Xatlash raqami № 1836.
3. Radiatsion, kimyoviy va biologik himoya qo‘shinlari bo‘linmalarining vazifalari va harakatlari taktikasi darsligi. T.: MV nashriyot bo‘limi, 2019. 112 bet. Xatlash raqami № 1261.
4. Suyarov Z.X., Ziyadullayev A.Sh. va b. Ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan himoya qilish. O‘quv qo‘llanma . – T.: O‘R MV, 2005. 319 bet. Xatlash raqami № 931.